

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Oripova L. Qashqadaryo adabiy muhiti rivojida Abdulla Oripov ijod matabining tutgan o'rni	118
Pirnazarova D. Metaforaning nazariy asosi va uning she'riy matnda ifodalanishi	120
Qahramonova S. Bir va ko'p ma'noli "kamsitish" semali so'zlar tavsifi	122
Qobilova M.M. O'zbek tilining izohli lug'atlarida sotsil semali leksemalarning genetik-etimologik tavsifi	125
Qobilova N.S., Hojiyeva M.T. Nutqiy aktlarning namoyon bo`lish usullari	127
Rakhmonova M.Z. The impact of phonological working memory in sentence processing in adults	130
Raxmatova D.N. O'zbek tili taraqqiyotida yangi davr	132
Raxmatova O.K. Zamonaviy rus va o'zbek tilini qyoslashda lingvopragmatik tahlil o'tkazish masalalari	136
Safoyeva S.N. Diskursiv markerlar: saxiylik va tasdiqlash tamoyillari	138
Saidkodirova D.S. The peculiar structure of semantic theory in linguistics	141
Saidkodirova D.S. Pragmatics among linguistic disciplines: problems of definition and classification	144
Saidova M.U., Axrorova M.X. Og`zaki diskursda uchraydigan muammolar va ularning tahlili	146
Salikhova M.B., Akhmadalieva Kh.A. Status of semi-affixes in english	149
Saydalieva A.E. Exploring aesthetic functions of irony in literature	152
Saydalieva A.E. Sociological and psychological aspects of irony	154
Saydivaliyeva B.S. Ingliz va o'zbek matbuot matnlarida evfemizmlar tahlili	156
Shadiyeva D. Bir g'azalda she'riy san'atlar jilvasi	159
Shavkatov Sh.Sh. O'zbek tilshunosligida fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning fe'l valentligidagi o'rni	162
Shukurov O.U. Milliy nomlash an'anasi va neym neologizmlar	165
Soberova M.S. Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar"qissasida ma'rifat masalalari talqini	168
Soyipov S.N. "Ravzat ush-shuhado" asarida shoir tili va badiiy mahorat masalalari	171
Saidova Z.X. Ruhiy jarayonlar va shaxs xususiyatlар frazeologik birliklarning leksik qatlam xususiyatlari	175
Soleyeva M.R. Yapon xalq maqollarining tarjimasi tadqiqot obyekti sifatida	178
Temirova K.B. Ichimlikni nomlovchi terminlar va semantik muvofiqlik	182
Tilovova G.R. Ona tili faniga oid atamalar o'quv izohli lug'atlari yaratishning lingvistik asoslari	186
Tosheva N.Sh. Tush va uning badiiy asar syujetidagi roli	189
Tukbayeva M.B. Linguistic units representing the category of state in non - related languages	192
Turg'unova F. Gazeta sarlavhalarining ko'p funktsionalligi	196
Tursunova M.V. Julian Barnsning "Angliya, angliya" asarida postmodern satirik roman unsurlari	199
Umurova X.H. National clothes and their linguistic features	203
Vaxidova F.S. Ingliz va o'zbek tillari soha terminlarining uyali tasniflari va semantik maydoni	205
Xamdamova X. Xalq dostonlarida harakat va holatni bildiruvchi so'zlardagi ko'pma'nolilik hodisasi haqida	207
Xiloliddinova F.R. Shekspir dramalarida olam va odam talqini	210
Xolbekova M.S. Tilshunoslikda teonim markazi tushunchasi haqida ayrim mulohazalar	213
Zokirova D.B. Methodology of cognitive stylistics	216
Абдурахмонова М.А. Ҳозирги француз тилида модал сўз ва ибораларнинг асосий маънолари ва уларнинг умумий ривожининг характерли жиҳатлари	218
Атаназарова Ш.Б. Реклама матнининг умумий тавсифи: тадқиқи ва тарихи	221

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –3/4-2024

estetik prinsiplari va o‘ziga xos poetikasini to‘la ohib berish imkoniyatini yaratadi. Sobir Sayqaliyning “Razat ush-shuhado” asari mazmuni va go‘zal shakliy qurumini shu nuqtai nazardan tadqiq qilish, uning ijodkor sifatidagi tarixiy xizmatini neqadar ekanligini namoyish qilish uchun ham o‘ta muhimdir. Umuman olganda, asarda turkiy adabiy til keng ifoda imkoniyati bilan namoyon bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida, Sobir Sayqaliyning mazkur mavzuga oid asar lar yaratishdagi mahoratini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aslida bu asar 1911-yili G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida boshilgan nusxada «Qissai shahzoda Bahrom va malikai Gulandom» nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu doston «Bahrom va Gulandom» nomi bilan shuhrat qozongan. Tadqiqotchi va noshirlar shu nom bilan atab kelishadi.
2. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. – Toshkent: 1960.
3. O‘zbek Milliy ensiklopediyasi. – T.:O‘zbek Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2004.; Qo‘qon Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 95.
4. Po‘latjon Domulla Qayyumi. Tazkirai Qayyumi, T.; 1998.
5. O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi. –T.; 1945. 2-tom.
6. Aliev R. Sobir Sayqaliy va uning «Bahrom va Gulandom» dostoni. Filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.; 1964.
7. Sobir Sayqaliy Hisoriy. Ravzat ush-shuhado. T.: Mavarounnah, 2004 (nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at mualliflari Sayfiddin Sayfulloh, Dovud Xunziker).
8. Rasulev X. O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik. – Toshkent; Fan, 1972.
9. Sobir Sayqaliy. Alisher Navoiy nomidagi davlat adaiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondi 77 inventar raqam ostida saqlanayotgan qolyozma nusha. Razat ush-shuhado.

UO’K 808.5

RUHIY JARAYONLAR VA SHAXS XUSUSIYATLAR FRAZEOLOGIK

BIRLIKLARNING LEKSIK QATLAM XUSUSIYATLARI

Z.X.Saidova, o’qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada ruhiy jarayonlar va shaxs xususiyatlar frazeologik birliklarning leksik qatlam xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan. Ko‘rib chiqilayotgan leksik qatlamlarning frazeologik birlik yaratish faollik darajasi, ular ichida aniqlangan tematik ko‘rsatkichlarning frazeologik birlik hosil qilish imkoniyatlari chog‘ishtirilayotgan tillarda bir xil emasligi aniqlanib ular uch guruhga bo‘lingan.

Kalit so‘zlar: leksik qatlam, frazeologik birlik, yuqori mahsuldor leksik qatlam, o‘rta mahsuldor leksik qatlam, past mahsuldor leksik qatlam.

Аннотация. В данной статье рассмотрены психические процессы и особенности личности особенности лексического слоя фразеологизмов. Уровень фразеологизирующей активности рассматриваемых лексических пластов определяется тем, что выявленные в них возможности тематических показателей по формированию фразеологизма неодинаковы в сопоставляемых языках и делятся на три группы.

Ключевые слова: лексический слой, фразеологизм, высокопродуктивный лексический слой, среднепродуктивный лексический слой, малопродуктивный лексический слой.

Abstract. This article focuses on mental processes and personality traits-the characteristics of the lexical layer of phraseological units. The activity level of creating a phraseological unit of the lexical layers in question, the possibilities of forming a phraseological unit of the thematic indicators determined in them are not the same in the languages under development and they are divided into three groups.

Keywords: lexical layer, phraseological unit, highly productive lexical layer, mid-productive lexical layer, low-productive lexical layer.

Frazeologik birliklarning bilvosita nominatsiya birliklari sifatidagi va asosiy muhim xususiyatlari frazeologizmlar ma’nosining denotativ va konnotativ ma’nolarini tahlil qilishda ham, ularning ichki shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda ham, komponentni o‘rganishda ham to‘liq ohib beriladi. Frazeologik birliklarning nominativ vazifasi jihatni bo‘yicha tarkibi, bu ularning tabiiy materiya nominatsiyasida asosiy asosdir”. Frazeologik birliklarning mutlaq

ko'pchiligi moddiy jihatdan mustaqil leksemalarga o'xshashdir. "Tilning leksik tizimida frazeologik komponentlarning nisbatan kichik qismi uchramaydi, ya'ni frazeologik birliklar tarkibidagina qo'llaniladi". Ko'pgina so'zlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ma'lumot berish imkoniyatlari ularning bevosita subyekt-konseptual birikmasi bilan belgilanadigan doiradan ancha kengroqdir. A.V.Kunin "frazeologik nominatsiyaning murakkabligi frazeologik birliklar alohida shakllangan formalar bo'lib, qayta o'ylangan va so'zma-so'z ma'noga ega bo'lgan so'zlardan iborat bo'lib, ekstralengvistik obyektlarga qaratilgan frazeologik birlik ma'nosи shular vositasida amalga oshiriladi", deb hisoblaydi.

RJSHX konseptual zonalarni ifodalaydigan ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik tahlili ko'rib chiqilayotgan birliklarning ibora shakllanishida ishtirok etadigan leksik qatlamlarni aniqlashga imkon beradi va u yerda iboralar hosil qiluvchi mavzuiy ko'rsatkichlar mavjudligi, bu til birliklarining ma'lum bir tematik sohaga tegishlilagini va ayniqsa semantik jihatga aylanishini namoyon qiladi, hamda ular asosida, qoida sifatida frazeologik uyalar guruhlanadi. Bularqa quyidagi mavzular bilan birlashtirilgan leksik qatlamlar kiradi:

1. *Inson tana a'zolari qismlari*: masalan, ingliz tilida *see with the left eye; be sick at heart; have a smooth tongue*; o'zbek tilida *yuragi (qalbi) yonmoq, o'zini qo'lga olmoq*.

2. *Hayvonot dunyosi*: masalan, ingliz tilida *play possum; (as) mad a dull dog*; o'zbek tilida *ayyor tulki, o'ch bo'ri, zaharli ilon, bo'riqarash qilmoq, ola qarg'a, tovus patidagi qarg'a* -(o'zining bema'niliqi tufayli o'zi uchun g'ayrioddiy yuqori lavozimni egallashga harakat qiladigan odam haqida).

3. *Diniy va g'ayritabiyy tasavvurlar*: masalan, ingliz tilida *look as if one had seen a ghost; be hell for smth; bare (pourout; unburden) one's soul*; o'zbek tilida *arvohni ko'rgandek, asfalasofinga jo'natmoq*.

4. *Aqliy va ruhiy holat*: masalan, ingliz tilida *have a slow wit; be in twenty minds; commit to memory*; o'zbek tilida *g'ich-g'ich aql, hushiga kelmoq; xotirada muhrlash*.

5. *Tabiiy hodisalar*: masalan, ingliz tilida *stuck with thunder; as black as night (as thunder; as a thunder cloud)*; o'zbek tilida *momoqaldoq kabi, tunday qora, bulutdek qora*.

6. *Uy-ro'zg'or buyumlar*: masalan, ingliz tilida *a bad mixer; (as) sharp as a needle; burn the candle at both end*; o'zbek tilida *pichoqdek o'tkir, bor tovog'im kel tovog'im, suqma qoshiq, kosa tagida nim kosa bor*.

7. *Moddalar*: masalan, ingliz tilida *(as) bold as brass; old flint; (as) good as gold*; o'zbek tilida *shilimdek yopishqoq, olovga kelgandek, shamday eridi, asalday shirin, moyday yoqib tushdi*.

8. *O'simliklar dunyosi*: masalan, ingliz tilida *grasp the nettle; quake (quiver, shake, tremble) lik ea leaf (like an aspen leaf), be (sit) on thorns*; o'zbek tilida *bargday qaltiramoq, guldek ochilmoq, momoqaymoqdek yumshoq*.

9. *Kiyim-kechak*: masalan, ingliz tilida *bite one's gloves; give the shirt off one's back; shake in one's shoes*; o'zbek tilida, *eng shimarib ishlamoq, paypoqdek (qo'lqopdek) almashtirmoq, yigitning akasi bo'lsin, ko'ylakning yoqasi*.

10. *Oziq-ovqat*: masalan, ingliz tilida *sweet as honey; a rotten egg; lay the butter on*; o'zbek tilida *asalday shirin, moyday yoqib tushdi*.

11. *Turdosh otlar*: masalan, ingliz tilida *look murder at smb; insolent beggar; boon companion*; o'zbek tilida *bekorchidan xudo bezor, hojat baror*.

12. *Atoqli otlar*: masalan, ingliz tilida *(as) proud as Punch; a Peeping Tom; a smart Alec*; o'zbek tilida *qiziquvchan Matmusa, Aldar Ko'sa, Ko'hi Qof ni bosib o'tmoq*.

13. *Ranglar*: masalan, ingliz tilida *take a rose – coloured view of smth; look black*; o'zbek tilida *qora rangga bo'yamoq, pushti rangda ko'rmoq*.

14. *Turar joy-binolar va inshootlar*: masalan, ingliz tilida *be light in the upper storey; turn on the water works; jump (over) the fence*; o'zbek tilida *shamol tegirmon, qulog'i tom bitgan*.

15. *Ma'naviyat va madaniyat*: masalan, ingliz tilida *(as) fit as (fine) as a fiddle; dance (pipe) to smb's tune; be in the blues*; o'zbek tilida *jonli ensiklopediya (har qanday masala yuzasidan ma'lumot bera oladigan kishi)*.

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –3/4-2024

16. O'Ichov, qiyomat: masalan, ingliz tilida *be eighteen bob in the pound; talk nineteen (twenty; forty) to the dozen; (as) sore as boil*; o'zbek tilida *bir tiyinga qimmat, noldan ham past, yuqori navli*.

17. Harbiy sohaga oid : masalan, ingliz tilida *fire a shot, sit on a keg of gun-powder; be at daggers drawn*; o'zbek tilida *og'ir artileriya, nayza otmoq (piching, istehzo ma'nosida), bomba portlasa ham pinagini buzmaydi, tank bosib ketsa ham parvoyi falak*.

18. Ruhiy holat: masalan, ingliz tilida *be on the rampage; burn with shame; fly into a passion (rage)*; o'zbek tilida *xijolat bo'lmoq; uyatdan qizarib ketmoq; g'azab o'tida yonmoq*.

19. Matematik atamalar: masalan, ingliz tilida *draw a parallel; find (reduceto) a common denominator, draw the line*; o'zbek tilida *umumiy maxrajni bermoq, teng ko'rmoq*.

20. Mavhum (abstrakt) tushunchalar: masalan, ingliz tilida *tickle to death; rake up the past; live one's own line*; o'zbek tilida *xayolga cho'milmoq, o'tmishni kovlamoq, o'mish bilan yashamoq*.

Ko'rib chiqilayotgan leksik qatlamlarning frazeologik birlik yaratish faollilik darajasi, ular ichida aniqlangan tematik ko'rsatkichlarning frazeologik birlik hosil qilish imkoniyatlari chog'ishtirilayotgan tillarda bir xil emas. Shu sababli, yuqori mahsuldor, o'rtal mahsuldor va quyi mahsuldor leksik qatlamlar haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. (Ular orasidagi chegara shartli ravishda olinadi, masalan, quyi mahsuldor qatlamlar 10-50 ta frazeologik birlik, o'rtal mahsuldor qatlamlarda 50-150 ta frazeologik birlik, yuqori mahsuldor qatlamlarda 150 dan ortiq frazeologik birliklar qatnashadi).

Yuqori mahsuldor leksik qatlamlar. Har ikki tilda ham eng samarali leksik qatlamlar *inson tana a'zolari, hayvonot dunyosi* va *mavhum otlar* guruhlariga oid frazeologik birliklardir.

O'rtal mahsuldor leksik qatlamlar. O'rtacha ibora yasovchi faollik bilan tavsiflangan leksik qatlamlarning qo'llanish chastotasi har ikkala taqqoslangan tilda ham mos keladi. Bularga quyidagilar kiradi: "Ruhiy holatlar" (inglizcha 125 ta, o'zbekcha 66 ta frazeologik birlik), "Aqliy holat" (inglizcha 89 ta, o'zbekcha 84 frazeologik birlik), "Diniy va g'ayritabiiy g'oyalar" (inglizcha 79 ta, o'zbekcha 100 frazeologik birlik), "Uy-ro'zg'or buyumlar" (inglizcha 84 ta, o'zbekcha 53 ta frazeologik birlik) va "Tabiiy hodisalar" (inglizcha 59 ta, o'zbekcha 56 ta frazeologik birlik).

Voqelikning ko'rib chiqilgan qismidagi tahlil qilingan frazeologik birliklarning umumiy miqdoriy taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi asosiy qismi inson *histuyg'ulari* va *shaxsiy xususiyatlar* konseptual subzonalarini aks ettiradi. Faqat ingliz tilida bu frazeologik birliklar kognitiv jarayonlarni ifodalashda nisbatan yuqori ulushga ega.

Past mahsuldorlik leksik qatlamlar. RJSNXni ifodalaydigan barqaror iboralarni shakllantirishda past mahsuldorlik bilan tavsiflangan leksik qatlamlardan foydalanish chastotasi ikkala tilda ham mos keladi va bu qatlamlar taqqoslangan tillarda frazeologik birlik yaratish faolligining to'liq mos kelishi bilan farqlanadi. Turdosh otlar; o'simliklar dunyosi; o'Ichov, qiymat; moddalar; turar joy, binolar, inshootlar; kiyim-kechak; ma'naviy madaniyat; ranglar; atoqli otlar; harbiy sohaga oid; oziq-ovqat; matematik atamalar shular jumlasidandir.

Ikkala tildagi "Turdosh otlar" (inglizcha 41ta; o'zbekcha 41ta frazeologik birlik) leksik qatlami asosan shaxsiy xususiyatlarni ifodalaydigan barqaror iboralarni shakllantirishda ishtirot etadi. Taqqoslanayotgan ikkala tildagi frazeologik birliklarning ma'lumotlari "Sezgilar", "Iroda" va "Tafakkur" subzonalarida salmoq jihatdan pastroq hisoblanadi. Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham tahlil qilingan frazeologik birliklar "Kognitiv jarayonlar" maydonini ifodalashda ishtirot etmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tematik guruhining ma'noni umumlashtira olishi natijasida shaxs ismlari har ikki tilda sezilarli semantik o'zgarishlarga uchraydi: masalan, ingliz tilida *(as) happy as a king; look murder at smb*; o'zbek tilida *Malikalarday yuradi*.

Tematic ko'rsatkich doirasidan tashqariga chiqadigan ma'noni umumlashtirish asosan ingliz tilidagi RJSNXni ifodalaydigan frazeologik birliklar uchun xosdir: masalan, ingliz tilida *an old wife; hot-air artist (merchant); an old woman*.

Dastlabki ikkita frazeologik birlik mos ravishda gapga chechanlikni, oxirgisi esa kamtarlikni bildirish uchun ishlataladi. RJSNXni ifodalaydigan ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklarida milliylikning eng yorqin namoyon bo'lishi ularning "Atoqli otlar" leksik qatlamin shakllantirishdagi ishtirokidir. Ushbu frazeologik birliklar genetik jihatdan metaforaga kiradi. Miqdoriy baholashga ko'ra, ikkala tilda ham bunday komponentlarga ega frazeologik birliklarning aksariyati "Shaxsiy

xususiyatlar” konseptual pastki zonasini ifodalaydi (inglizcha 18ta, o’zbekcha 11 ta frazeologik birliklar): masalan, ingliz tilida *A Nosey Parker; a smart Alec*; o’zbek tilida *Qiziquvchan Matmusa, Aldar Ko’sa; shuningdek, “Iroda”* kichik zonası (inglizcha 5 ta FB, o’zbekcha 7 ta FB.) ingliz tilida *A doubting Thomas*; o’zbek tilida *Rustami Doston*. Har ikki tilda ham ko‘rib chiqilayotgan leksik qatlam doirasida 1) pul birliklari; 2) fizik miqdorlar; 3) vazn kattaliklari; 4) arifmetik birliklar; 5) uzunlik o’lchovlarini bildiruvchi kabi beshta mavzuli ko‘rsatkichlar guruhi ajratiladi.

Qiyosiy tahlilga ko‘ra, ingliz va o’zbek tillarida ushbu ko‘rsatkichlar guruhlarini qo’llash chastotasi har doim ham mos kelmaydi. O’zbek tilida asosan: pul birliklari (13 ta frazeologik birlik); arifmetik birliklar (8 ta frazeologik birlik) va uzunlik o’lchovlari (6 ta frazeologik birliklar); ingliz tilida esa: uzunlik o’lchovlari (7 ta frazeologik birlik) va fizik miqdorlar (8 ta frazeologik birlik) ularning chog‘ishtirilayotgan tillar so‘z birikmalarida to‘plam iboralarini shakllantirishda teng bo‘lmagan unumдорлиги bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь / Лит. ред.
2. М.Д. Литвинова. 4-е изд., перераб. и доп. -М.: Рус. яз. 1984.
3. Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф.дисс... доктора филол. наук. – Т., 1991. – 52 с.
4. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Т., 2000. – 50 б.
5. Обидина Н.В. Фразеологизмы, содержащие характеристики поведения человека в современном русском и английском языках: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 2008. – 25 с.

UO‘K 811.521

YAPON XALQ MAQOLLARINING TARJIMASI TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA
M.R.Soleyeva, o’qituvchi, Samarcand davlat chet tillar instituti, Samarcand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yapon xalq maqollari va ularni o’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tayaniladigan omillar va tarjima usullariga oid ayrim mulohazalar haqida fikr yuritilgan. Maqol xalqning ko’p asrlar mobaynida ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to’plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo’lgan og’zaki ijod janrlaridan biri ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, yapon xalq maqollaridan namunalar keltirilib, ularning o’zbek tili bilan qiyosiy tarjimasi tahlilga tortilgan. Tarjima jarayonida qiyoslanayotgan tillararo muqobillik va tafovutli jihatlarga oid ilmiy yondashuvlar aniq misollar asosida dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *xalq og’zaki ijodi, paremiologiya, tarjima, ことわざ(kotowaza — maqol), 儻用句 (kanyouku — ibora), maqol, ibora.*

Аннотация. В этой статье рассматриваются японские народные пословицы и некоторые соображения относительно факторов и методов перевода, используемых в процессе их перевода на узбекский язык. Отмечается, что пословица представляет собой один из жанров устного творчества, обладающий лаконичным и глубоким смыслом, созданный на основе опыта и наблюдений народа в общественной, экономической, политической и культурной жизни на протяжении многих веков. Также приведены примеры японских народных пословиц и проанализирован их сравнительный перевод с узбекским языком. На конкретных примерах обоснованы научные подходы к межъязыковым альтернативам и различиям, сравниваемым в процессе перевода.

Ключевые слова: фольклор, паремиология, перевод, ことわざ (котоваза — пословица), 儻用句(канёку — фраза), пословица, словосочетание.

Abstract. This article discusses Japanese folk proverbs and some considerations regarding the factors and translation methods used in the process of translating them into Uzbek. It is noted that the proverb is one of the genres of oral creativity with a concise and deep meaning, which was created on the basis of the experiences and observations of the people in the social, economic, political and cultural life for many centuries. Also, examples of Japanese folk proverbs are given, and their comparative translation with the Uzbek language is analyzed. Scientific approaches to interlanguage